

## ITALYAN TILIDA SIFAT KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK IBORALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

*Xudoyqulov Behzod*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi,  
[behzod\\_xudoyqulov@dpi.uz](mailto:behzod_xudoyqulov@dpi.uz)*

**Annotatsiya:** Narsa-predmet va hodisalarning belgisini bildirish sifatning semantik asosidir. Belgi bildirish xususiyati va tabiati jihatidan tub va nisbiy sifatlar bir-biridan qisman farqlanuvchi o'zgachaliklarga egadir.

Sifatlar frazeologik iboralar tarkibida ham tez-tez qo'llanilishini ham ta'kidlab o'tish joiz. Har bir tilda frazeologik iboralar tuzilishi, leksik-semantik, funktsional-uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o'ziga xos shakllanish xususiyatlariga ega bo'lgan til birligidir.

Ushbu maqolada italyan tilidagi sifat komponentli frazeologik iboralar va ularning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Sifat komponentli frazeologik iboralarga oid misollar orqali, frazeologik iboralarda eng ko'p qo'llaniladigan sifatlar tahlili ham berilgan.

**Kalit so'zlar:** sifat, frazeologiya, frazeologik ibora, shakl va ma'no, ko'chma ma'no, tarjima.

So'z leksikologiyada tekshirilishiga qaramay, u ma'lum tomonlari bilan grammatikaga ham aloqadordir, so'z umuman tilning birligi sifatida baholansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har bir tilning grammatik qurilishi ma'lum normalarga, qonun qoidalarga egadir. Italyan tilida ham so'z turkumlari dastlab ikki turga mustaqil (*parte del discorso variabile*) va yordamchi (*parte del discorso invariabile*) so'z turkumlariga bo'linadi. Mustaqil so'z ma'lum tushuncha ifodalab, biror predmet, belgi, harakat nomini ataydi, gapda biror gap bo'lagi bo'lib keladi. Yordamchi so'zlar turkumi tushuncha ifoda etmaydi, faqat grammatik ma'no ifodalab gapda so'zlarning o'zaro munosabatini o'rnatishga xizmat qiladi. Demak, ularni funktsional grammatik belgilar farqlab turadi. Yordamchi so'zlarda morfemalarga yaqinlik belgisi - funktsional belgisidir.

Sifatlar predmetning rangini, shaklini, mazasini, xajmini va shu kabilarni ifodalashi mumkin. Demak, sifatlar ma'nosiga ko'ra turlarga ajratiladi, masalan:

Italyan tilida - Iqlim va haroratga nisbatan ishlatiladigan sifatlar: *Afosa-jazirama; bollente-qaynoq; calda-issiq; Estiva-yozgi; Mite-mayin; Nuvolosa-bulutli; Piovosa-yomg'irli*; Italyan tilida – Fasl va davrga nisbatan ishlatiladigan sifatlar: *Allegra-quvnoq; Affollata-gavjum; Bella-ajoyib; Bollente-qaynoq; Brutta-yomon; Buona-yaxshi; Calma-sokin; Costosa-qimmat; Diversa-har xil; Divertente-qiziqarli*;

*Eccezionale-Juda ajoyib*; Italian tilida – Inson hayotini tasvirlovchi sifatlar: *lunga-uzoq umr*; *dolce-shirin*; *complicata-murakkab*; *pubblica-ommaviy*; *intensa-qizg'in,jadal*; *nuova-yangi*; *spericolata-bee'tibor,beparvo*; *serena-tinch,sokin*; *movimentata-voqealarga boy*; *spensierata-tashvishlardan holi,bexavotir*; Italian tilida – Kitob va uning mazmuniga nisbatan ishlatiladigan sifatlar: *noioso-zerikarli*; *pesante-og'ir*; *economico-iqtisodiy*; *romantic-romantik*; *rovinato-abgor,vayron bo'lgan*; *bianco-oq*; *antico-qadimiy*; *giallo-detektiv*; *divertente-ajoyib,qiziqarli*; Italian tilida – Ta'mga nisbatan ishlatiladigan sifatlar: *Gradevole-yoqimli*; *Piacevole-yoqimli*; *Buono-yaxshi*; *Delicate-nozik*; *Fine-nozik*; *Soave-shirin*; *Squisito-nafis*; *Potente-kuchli*; *Sottile-nozik*; *Aromatic-xushbo'y*; *Abboccato-juda shirin*; Italian tilida – Ovoz,tovushga nisbatan ishlatiladigan sifatlar: *Acuta-o'tkir*; *Alta-baland*; *Allegra-quvnoq*; *Chiara-aniq*; *Dolce-shirin*; *Debole-zaif*; *Forte-baland ovoz*; *Grossa-yo'g'on*; *Grave-jiddiy*; *Limpida-aniq*; *Melodiosa-ohangdor*; Italian tilida – Inson tuzilishi va ko'rinishiga nisbatan ishlatiladigan sifatlar: *bassa-past*; *alta – baland*; *di media statura-o'rta balandlikda*; *grassa – semiz*; *magra - ozg'in*; *snella – nozik*; *normale – normal*; *diritta-qaddi to'g'ri*; *curva-egilgan*; *esile /gracile – nozik*; *grande-katta*; *grossa-katta*; *piccolo-kichik*; *robusta-baquvvat*; *forte-kuchli*;

Italian tilida sifat komponentli iboralar ham anchagina bo'lib ularni semantik jihatlarini tahlili qilish qiziqarli mavzulardan biridir. Italian tilidagi sifat komponentli iboralarni o'rganish jarayonida rang-tus sifatlari iboralarda ko'proq ishlatilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ularni quyidagi misollar orqali tahlil qilishimiz mumkin:

- **In buone mani** - Ishonchli qo'llarda, himoyada bo'lmoq;
- **Avere le mani lunghe** - Qo'li uzun bo'lmoq, yetarli qudrati bo'lmoq.
- **Andare a testa alta** – Mag'rur odam ga nisbatan ishlatiladi -Mag'rur bo'lib yurmoq.
- **Andare con la testa alta** – (Boshi baland) Hijolatsiz, boshini tik tutib yura oladigan odam ga nisbatan ishlatiladi.
- **Cavarsela a buon mercato** – Qiyin vaziyatdan chiqib ketish
- **Essere bianco dalla paura** - Juda qo'rqmoq.
- **Essere rosso dalla vergogna** - Juda tortinmoq/uyalmoq.
- **Parlare a cuore aperto/col cuore in mano (Parlare con sincerità e fiducia.)** – Ochiq ko'ngillik bilan/Samimiylik bilan gapirish.
- **Andare in bianco** - So'zma so'z tarjimada, 'Oq ranga borish'deb tarjima qilinadi. Ibora, Rad etilmoq, rad javobini olmoq ma'nolarida ishlatiladi.
- **Avere il sangue blu** – So'zma – so'z tarjimada, 'ko'k qoni bo'lmoq' tarzida bo'ladi. Ibora, Oliy zotli, aristokrat ma'nolarida ishlatiladi.
- **Avere l'argento vivo addosso** – Jo'shqin,faol kishi/to'xtamasdan

harakatlanib turadigan bola kabi ma'nolarda ishlatiladi.

- Cronaca nera – So'zma – so'z tarjimada, Qora yangiliklar deb tarjima qilinadi. Ibora, Kriminal xabarlar ma'nosida keladi.
- Cronaca rosa – So'zma – so'z tarjimasi, 'Pushti yangiliklar' tarzida bo'ladi. Ibora sifatida quyidagi ma'noni anglatadi: Odamlar haqidagi/Shaxsiy hayoti haqidagi (g'iybat) xabarlar.
- *Felice come una Pasqua* - So'zma-so'z tarjimada, "Pasxadek xursand bo'lish". Ibora holatida esa, juda ham xursand bo'lish ma'nosida keladi.
- *Lavorare in nero* - So'zma so'z tarjimada, "qora kiyimda ishlash" Ibora holatida esa, shartnomasiz soliq to'lamasdan noqonuniy ishlash ma'nosida keladi.
- *Lungo come la Quaresima* - Ibora holatida juda uzoq muddat davom etish ma'nosida keladi.
- *Mangiare in bianco* - So'zma so'z tarjimada, "oq rangda ovqatlanish". Ibora holatida esa, yengilgina tamaddi qilish ma'nosida keladi.
- **Mettere nero su bianco** - Bu iborani "oq ustiga qora qo'yish" deb tarjima qilish mumkin va bu qarorni tasdiqlamoq, muayyan narsa uchun shartnoma imzolamoq degan ma'nolarni anglatadi.
- *Scoprire l'acqua calda* - So'zma so'z tarjimada, "iliq suvni kashf qilish" Ibora holatida esa hammaga ma'lum bo'lgan narsani eslatish ma'nosida keladi.
- *Una giornata grigia* - So'zma so'z tarjimada, "kulrang kun" Ibora holatida esa juda yomon kunni tasvirlashda ishlatiladi .
- *Un pezzo grosso* - So'zma so'z tarjimada, "katta parcha" Ibora holatida esa, juda muhim bo'lgan insonni ifodalashda ishlatiladi.
- *Vedere i sorci verdi* - So'zma so'z tarjimada, "yashil kalamushlarni ko'rish" Ibora holatida esa, yomon kunlarni boshidan kechirish, ko'p azob chekishni anglatadi.
- *Vedere rosa* - So'zma so'z tarjimada, "pushtini ko'rish" Ibora holatida esa, optimistic bo'lish ya'ni doim yaxshi narsalar haqida o'ylash ma'nosida keladi.
- *Vedere rosso* - So'zma so'z tarjimada, "qizilni ko'rish ma'nosida, Ibora holatida esa, g'azablanish, aqldan ozdirish ma'nosida ishlatiladi.
- *Vedere tutto nero* - So'zma so'z tarjimada, "hamma narsani qora ko'rish" Ibora holatida esa doim pessimistic ya'ni har narsaning yomon tomonini ko'rish ma'nosida keladi.
- **Di buon passo** - Tez qadamlar bilan
- **Di buona lega** - Yaxshi sifatda (sifatli).

- **Di punto in bianco** - To'satdan, tasodifan
- **Di gran lunga** - Juda, juda ko'p;
- **In stato interessante = incinta** - Homilador
- **“Buono come il pane“** – Muloyim insonga nisbatan ishlatiladi
- **Andare con la testa bassa** - Boshi egik, uyaladigan odam ga nisbatan ishlatiladi.
- **Vedere di buon occhio** → Xayrihoxligi bo'lmoq (biror kishiga yoki vaziyatga nisbatan).
- **Vecchio lupo del mestiere** - O'z ishining ustasi
- **Fame da lupo** - Ishtahasi karnay
- **Passare la notte in bianco** - Tunni uyqusiz o'tkazish.
- **Dare / fare un assegno in bianco** - Kingadir moliyaviy ekinlik (pul sarflashga)/ruxsat berish.
- **Fare una settimana bianca** - Tog'da qishki ta'tilni o'tkazish.
- **Essere al verde** - Pulsiz bo'lmoq.
- **Essere verde dall'invidia** - Juda hasadgo'y bo'lish.
- **Avere il pollice verde** - Gul/o'simlik parvarishlashda uddaburon. Qo'li gul.
- **Dare il disco verde** - Biror narsaga yo'l ochib berish.
- **Romanzi / film gialli** - Detektiv asar yoki film.
- **Dare il disco rosso** - Bir narsani to'xtatmoq.
- **Di gran tempo** - Katta yoshda
- **Tempo grasso** - Bulutli ob-havo
- **Tempo grosso** - Bulutli
- **Nascere sotto una buona stella** - Baxtli yulduz ostida tug'ilgan
- **Parola grossa** - Kuchli so'z
- **Parlare grasso** - Qo'pol bo'lish
- **Testa vuota** – Kallasi bo'm-bo'sh, Javob bera olmaydigan, ma'suliyatsiz odam ga nisbatan ishlatiladi.
- **A occhi chiusi** → Osonlik bilan, katta ishonch bilan (biror ishni bajarmoq)
- **Avere la parola pronta** - Javob berishga hozir bo'lmoq, savolga javobi tayyor bo'lmoq
- **Avere le braccine corte** - So'zma-so'z tarjimada, “qo'llaro kalta”. Iborat ‘Ziqna bo'lish’ ga nisbatan ishlatiladi.
- **Avere una faccia da pesce bollito/lesso** – Bu iboraning ma'nosi quyidagicha: Yuzi ifodasiz, ma'nosiz bo'lish.
- **Bastian contrario** -Iboraning ma'nosi quyidagicha: Teskari qarash/fikr, Boshqalarning fikriga/ishiga qarama-qarshi fikr.
- **Cascarci come una pera cotta** – So'zma – so'z tarjimada, Pishgan nok kabi

tushish, to'kilish; tarzida bo'ladi. Ibora ma'nosida, kimdir yolg'on gapirganda va siz darhol unga ishonganda ishlatiladi.

- Farsi I cavoli *proprio* - So'zma-so'z tarjimada, "o'z karamlari haqida o'ylash".
- Ibora holatida esa, o'z ishi bilan mashg'ul bo'lish ma'nosida keladi.
- Fa un *freddo* cane! - So'zma-so'z tarjimada, "it kabi sovuq bo'lish". Ibora holatida esa, juda qattiq sovuq bo'lish ma'nosida keladi.
- Lamentarsi di gamba *sana* - So'zma so'z tarjimada, "sog'lom oyoq bilan shikoyat qilish" Ibora holatida esa, hech qanday sababsiz shikoyat qilish ma'nosida keladi.
- *Magro* come un'acciuga - So'zma so'z tarjimada "sho'r baliqdek ozg'in" Ibora holatida esa, juda ozg'in, oriq ma'nosida keladi.
- *Matto* come un cavallo - So'zma so'z tarjimada, "otdek aqldan ozgan" Ibora holatida esa, esh-hushidan yo'qotgan ma'nosida keladi.
- È acqua *passata* – So'zma-so'z tarjima qilganda quyidagicha bo'ladi: Bu oqqan suv. Ibora sifatida quyidagicha bo'ladi: O'tgan/unutilgan narsa.
- Piangere sul latte *versato* - So'zma so'z tarjimada "to'kilgan sut uchun ko'zyosh to'kish" Ibora holatida esa, o'tgan voqea-hodisa uchun achinish ma'nosida ishlatiladi.
- Rimanere a bocca *asciutta* - So'zma so'z tarjimada, "og'iz quruq qolish" Ibora holatida esa, olmoqchi bo'lgan narsani olmaslikni ifodalash uchun ishlatiladi.
- Se non è zuppa, è pan *bagnato*! - So'zma so'z tarjimada "sho'rva bo'lmasa, ho'l non" Ibora holatida esa, birxillikni ifodalashda ishlatiladi..
- *Sordo* come una campana - So'zma so'z tarjimada, "qo'ng'iroqdek kar" Ibora holatida esa haqiqatdan ham kar ekanligini ifodalashda ishlatamiz.
- Tempo di vacche *magre* - So'zma so'z tarjimada, "nozik sigirlar vaqti" Ibora holatida esa, puli yo'q paytlarni, qiyin holatni ifodalashda foydalaniladi.
- Una patata *bollente* - So'zma so'z tarjimada, "issiq kartoshka" Ibora holatida esa, yechim toppish qiyin bo'lgan muammo ma'nosida keladi..
- *Veloce* come una leper - So'zma so'z tarjimada, "quyondek tez" Ibora holatida kelganda esa, juda tez harakatlanish ma'nosida ishlatiladi.
- **Avere il cuore *libero*** (Non essere innamorati di nessuno.) - Bu ibora, Sevgisiz qalb ma'nosini ifodalaydi. Lekin il cuore libero so'zlarining asl tarjimasi – "bo'sh yurak" tarzida bo'ladi.
- **Avere il cuore *d'oro*** (Essere una persona generosa e buona.) - Bu ibora, Saxiy, yaxshi inson ma'nosini ifodalaydi. Iboradagi Il cuore d'oro – so'zlari esa aslida - oltin yurak deb tarjima qilinadi.

- **Avere il cuore *pesante* (Essere delusi o dispiaciuti o addolorati per qualcosa.)**  
- Ushbu iboraning ma'nosi: Xafa, og'ringan yurak. Iboradagi il cuore pesante – vazni og'ir yurak , deb tarjima qilinadi
- **A caro prezzo** - Qimmat narxda
- **A nessuno e *nascosto*** - Hech kimga sir emas (hammaga ma'lum...)
- **A passo *saldo*** - Dadil qadam bilan
- **Con sua *buona pace*** -Sizning ruxsatingiz bilan. [Oltiev, B.Xudoyqulov. 2021;]

| <b><i>Rang-tusni ifodalovchi sifatlar soni:</i></b> |              |
|---|--------------|
| 1. <i>Bianco</i> - oq                               | 7 ta iborada |
| 2. <i>Rosso</i> - qizil                             | 5 ta iborada |
| 3. <i>Verde</i> - yashil                            | 4 ta iborada |
| 4. <i>Nero</i> - qora                               | 3 ta iborada |
| <b><i>Boshqa sifatlar:</i></b>                      |              |
| 5. <i>Buono</i> - yaxshi                            | 8 ta iborada |
| 6. <i>Lungo</i> - uzun                              | 3 ta iborada |
| 7. <i>Caldo</i> - issiq                             | 3 ta iborada |
| 8. <i>Grande</i> - katta                            | 2 ta iborada |
| 9. <i>Grasso</i> – semiz, katta                     | 2 ta iborada |

Til orqali fikrlashishda, aloqa aralashuv hodisasida, nutqda, til materiallaridan shu qonun-qoidalar asosida foydalaniladi, bu bilan tilning realizatsiya, tildan foydalanishning aniq ko'rinishlari, nutq hosil bo'lishi shubhasizdir. Chunki tildan foydalanish aniq qoidalar, normalar asosida bo'lib, bu til tuzilishining o'zida bor, grammatik qoidalar, ma'lum tartibda bayon qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bondarko A.V. (1976) Teoriya morfologicheskikh kategoriy. L: Nauka.
2. Gianluca Aprile. (2008). Italiano per modo di dire//Alma Edizione .
3. Oltiev T., Xudoyqulov B. Italyan tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – 2021.
4. Pittano G., (2001) ` Frase fatta capo ha. Dizionario dei modi di dire, proverbi e Locuzioni, 5th ed., Bologna.
5. Quartu B. M., (2000) Dizionario dei modi di dire della lingua italiana, 4th ed., Milano.
6. Qudrat Musaev. (2005) “ Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik.T.: «Fan» nashriyoti, -13 b.
7. Turrini G., Alberti C. (2002) Santullo M. L., Zanchi G., Capire l'antifona. Dizionario dei modi di dire con esempi d'autore, 6th ed., Bologna.

8. Vladimir Kovalev. il Kovalev, (2014) Dizionario Russo-Italiano Italiano-Russo. Quarta edizione. Collana: I grandi dizionari .
9. Xudoyqulov B., Yangiboyeva M. ITALYAN VA INGLIZ TILLARIDAGI AYRIM RANG KOMPONENTLI IBORALARNING SEMANTIKASI //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 4. – С. 564-570.
10. Xudoyqulov B., Jumayeva M. FRAZEOLOGIK IBORALARNING TEMATIK VA SEMANTIK TAHLILI (ITALYAN TILIDAGI IBORALAR MISOLIDA) //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 2. – С. 698-706.
11. Худойкулов Б. Frazеологик ибораларни италян тилдан о ‘zbek тилига таржима қилиш муаммоларига доир //Переводоведение: проблемы, решения и перспективы. – 2022. – №. 1. – С. 73-75.